

Qoraqalpog‘iston Respublikasida Demografik holat

2025- yilning yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko‘rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug‘ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko‘rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko‘rsatkichlar

2026-yilning 1-yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2 053,2 ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 1,2 foizga ko‘paygan. 2025-yil yilning yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 39,3 ming nafarni, vafot etganlar 10,4 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o‘sinh 28,9 ming kishiga teng bo‘ldi. Mamlakatimizga xorijiy davlatlardan ko‘chib kelganlar soni 101 kishini va mamlakatdan xorijga ko‘chib ketganlar soni 3 532 kishini, qayd etilgan nikohlar 12,2 mingtani, nikohdan ajralishlar 1,9 mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	2 053,2	ming kishi
Tug‘ilishlar soni	39,3	ming kishi
O‘lganlar soni	10,4	ming kishi
Xorijdan ko‘chib kelganlar	101	kishi
Xorijga ko‘chib ketganlar	3 532	kishi
Nikohlar soni	12,2	ming birlik
Nikohdan ajralishlar soni	1,9	ming birlik

II. Doimiy aholi soni

Qoraqalpog'iston Respublikasida doimiy aholi soni 2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 2 053,2 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,5 ming kishiga, yani 1,2 foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda 999,5 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 48,7 %), qishloq joylarda esa 1 053,7 ming kishi (51,3 %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 1 021,7 ming kishini (49,8 %), erkaklar esa 1 031,5 ming kishini (50,2 %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni
(1-yanvar holatiga, kishi)

	2025-yil	2026-yil	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 029 718	2 053 173	101,2
Nukus sh.	344 690	349 392	101,4
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	215 655	218 682	101,4
Beruniy	209 025	212 587	101,7
Bo'zatov	21 846	21 829	99,9
Qorao'zak	54 712	54 763	100,1
Kegeyli	75 362	75 925	100,7
Qo'ng'iro't	137 234	138 368	100,8
Qonliko'l	54 346	54 823	100,9
Mo'ynoq	33 885	34 133	100,7
Nukus	54 956	55 947	101,8
Taxiatosh	77 389	77 760	100,5
Taxtakopir	38 918	38 930	100,0
To'rtko'l	232 504	236 050	101,5
Xo'jayli	130 115	131 272	100,9
Chimboy	116 543	117 107	100,5
Shumanay	58 517	58 748	100,4
Ellikqal'a	174 021	176 857	101,6


Qoraqalpog'iston Respublikasida 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 12,3 kishi to'g'ri kelgan. (2025-yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km.ga 12,2 kishi).



III. Tugʻilganlar va vafot etganlar

Qoraqalpogʻiston Respublikasida 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan tirik tugʻilganlar soni 39,3 ming kishini, har ming aholiga nisbatan tugʻilish koeffitsienti 19,2 promilleni tashkil etdi. Tugʻilishlar soni 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,3 ming nafarga kamaygan.


Vafot etganlar soni 10,4 ming kishini, har ming aholiga nisbatan oʻlim koeffitsiyenti 5,1 promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni 2024-yilning mos davrida nisbatan ham 5,1 promilleni tashkil etdi.



Qoraqalpogʻiston Respublikasida tirik tugʻilganlar soni 39,3 ming kishini, shundan oʻgʻil bolalar soni 20,3 ming kishini (jami tugʻilganlar soniga nisbatan 51,7 %), qiz bolalar soni 19,0 ming kishini (48,3 %) tashkil etdi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasida vafot etganlar soni 10,4 ming kishini, shundan erkaklar 5,8 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 55,7 %), ayollar 4,6 ming kishini (44,3 %) tashkil etdi.

Tugʻilganlar va vafot etganlarning jinslar boʻyicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni 12,2 ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 6,0 promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,0 ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni 1,9 ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Qoraqalpog‘iston Respublikasida nikoh tuzganlar soni 12,2 ming birlikni, shundan shahar joylarida 5,4 ming birlikni, qishloq joylarida 6,8 ming birlikni tashkil etdi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida nikohdan ajralishlar soni 1,9 ming birlikni, shundan shahar joylarida 1,1 ming birlikni, qishloq joylarida 0,8 ming birlikni tashkil etdi.

**Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning
shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi, ming birlik**



V. Aholi migratsiyasi

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika bo‘yicha ko‘chib kelganlar jami soni 13 200 kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko‘chib kelganlar 13 099 kishini, xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlar 101 kishini tashkil etdi.


Ko‘chib ketganlar jami soni 18 622 kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko‘chib ketganlar 15 090 kishini, xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlar 3 532 kishini tashkil qildi.

Ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni, kishi



	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	13 200	13 099	101	18 622	15 090	3 532
Nukus sh.	4 688	4 659	29	4 171	3 332	839
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	838	808	30	1 468	1 303	165
Beruniy	871	871	0	1 307	1 111	196
Bo'zatov	128	125	3	360	307	53
Qorao'zak	112	112	0	598	559	39
Kegeyli	495	489	6	854	779	75
Qo'ng'iro't	465	462	3	1 174	683	491
Qonliko'l	377	377	0	501	459	42
Mo'ynoq	168	168	0	339	242	97
Nukus	1 041	1 039	2	814	734	80
Taxiatosh	348	348	0	823	419	404
Taxtako'pir	247	240	7	599	358	241
To'rtko'l	923	911	12	1 271	1 209	62
Xo'jayli	830	825	5	1 372	957	415
Chimboy	691	688	3	1 319	1 138	181
Shumanay	294	293	1	559	504	55
Ellikqal'a	684	684	0	1 093	996	97

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VII. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuvi shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>



Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
A. Mamutova
Tel: 61 222-76-57
(9570)

Manzil:
230103, Nukus,
A. Dosnazarov ko'chasi,
97 a-uy Pochta:
info@qrstat.uz
